

TERMIZ SHAHRINING TARIXIY TOPONIMIKASI

*Termiz davlat pedagogika instituti
Tabiiy va aniq fanlar fakulteti o'qituvchisi*

Djumayeva Mohigul

*Termiz davlat pedagogika instituti
Tabiiy va aniq fanlar fakulteti talabasi*

Qarshiyeva Malika

Imalika199000@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Termizning ko'p ming yillik tarixi, boy madaniyati hamda tarixiy toponomikasini shakllanishida ko'plab sivilizatsiyalar va madaniyatlar chorrahasida joylashganligi haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Shuningdek, muhim strategik manzilda ekanligi hamda savdo-sotiq, ilmu-fan rivojida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: TAKE, Tarmita, Drmat, Tami, Oks, Okuz, Vaxsh, "Taro-maetho"

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о многотысячелетней истории, богатой культуре и исторической топонимике Термеза, расположенного на стыке многих цивилизаций и культур. Также говорят, что он находится в важном стратегическом месте и занимает свое место в развитии торговли и науки.

Ключевые слова: TAKE, Тармита, Дрмат, Тами, Окс, Окуз, Вахш, «Таро-маэто»

Annotation: This article provides detailed information about the many thousand-year history, rich culture and historical toponymy of Termiz, which is located at the crossroads of many civilizations and cultures. It is also said that it is in an important strategic location and its place in the development of trade and science.

Keywords: TAKE, Tarmita, Drmat, Tami, Ox, Okuz, Vakhsh, "Taro-maetho"

KIRISH

Surxondaryo viloyatining qadimgi tarixiy toponimlaridan biri — Termiz hisoblanadi. Termiz atamasining paydo bo'lishi bevosita miloddan avvalgi VI–IV asrlar oralig'ida hozirgi Termizdan 7 km janubi-g'arbda, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan dastlabki aholi manzili bilan bog'liq. Termiz nomining kelib chiqishini aksariyat mualliflar qadimgi Baqtriya tilidagi "taro maetho" — "daryoning narigi sohilidagi manzil" degan ma'noni anglatishi bilan izohlaydilar. Bunday fikr ilk bora avstriyalik olim V. Tomashek tomonidan bildirilgan.

Miloddan avvalgi 328-yil bahoridan, ya'ni makedoniyalik Aleksandrning So'g'dga so'g'diy va baqtriyaliklarning qo'zg'olonini bostirish maqsadida boshlagan

yurishidan so'ng Tarmita (Termiz) nomida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan. O'rta Osiyo hududida antik davr an'analariga ko'ra, makedoniyalik Aleksandr asos solgan shaharlardan biri "Oks bo'yidagi Aleksandriya" deb atalgan.

Surxon zamini milodiy 383 yildan boshlab Toxariston o'lkasining tarkibiy qismi. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, toxar atamasining paydo bo'lishi miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida Yunon-Baqtriya podshohligining hukmronligiga barham bergan Da-yuechji ya'ni (toxar) qabilalariga borib taqaladi.⁴ Ilk o'rta asrlarda toxar atamasi etnonimdan toponimga aylanib toxar etnosi kelib o'rnashgan butun tarixiy-madaniy o'lka nomini anglata boshlagan⁵. Etnolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, "Toxar" atamasi "oq bosh" ma'nosini anglatadi⁶. Ilk o'rta asrlarda Toxariston, shu jumladan uning shimolsharqiy qismida murakkab etnik jarayonlar sodir bo'lib, o'lkaning turkiylashish jarayoni tezlashgan.

Termiz va «Temir darvoza» oralig'i hozirgi Eski Termiz hududidan shimol tarafga yo'nalgan bo'lib, Kaptarxona, Angor, Qorasuv, Sherobod vohalarini kesib o'tib, Sherobodaryoning yuqori oqimi bo'ylab, uning chap va o'ng qirg'oqlari yoqalab, Sayrob va Darband qishloqlari osha Darband va Sho'rob qishloqlari o'rtasidagi Oqqo'tol va undan so'ng Chak-Chak dovoniga yaqin daraga tutash bo'lgan. Bu savdo yo'lida miloddan avvalgi VII - VI asrlarda ikki qismli shaharlarga asos solingan. Yunon-Baqtriya (miloddan avvalgi III-II asrlar) va ayniqsa, Kushon podshohligi davrida (milodiy I-III asr o'rtasi) bu savdo yo'nalishi O'rta Osiyoning markaziy qismini Shimoliy Hindiston yerlari bilan bog'lab turgan «Buyuk Ipakyo'li» ning bir bo'g'ini sifatida to'liq shakllangan. Miloddan avvalgi VI-IV asrlardan milodiy VII asrga qadar bu savdo yo'lida yozma manbalarda ikki tarixiy toponim TarmitaTermiz va «Temir darvoza» (qadimgi baqtriya tilida «Dari Ohanin», qadimgi turkiyda «Temir qopug'») tilga olingan. VIII—IX asrlardan bu savdo yo'lida mavjud shaxar va rabot (karvonsaroy)larning manbalarda tilga olingan nomlari soni yana orta borgan. Chag'oniyon davlatining g'arbiy chegarasi Bob ul-Hadid yoki Temir darvoza orqali o'tgan. Bu yerda yunonlar va kushonlar davrida mustahkam mudofaa inshootlari qurilgan edi. Temir darvoza hozirgi Boysun tumani Darband va Sho'rob qishloqlari yaqinidagi Buzg'olaxona darasida joylashgan. Qadimda Chag'oniyon va Termizdan chiqqan karvonlar Temir darvozadan o'tib So'g'dga yo'l olishgan.

XV asrda yashab o'tgan taniqli geograf Hofizi Abru yozishicha, Termizga Iskandar Zulqarnayn asos solgan. Ingliz tarixchisi V. Tarn Termiz tarixiga oid ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilib, "Oks bo'yidagi Aleksandriya" Termiz o'rnida mavjud bo'lgan degan xulosaga keladi.

Arxeolog olimlar, xususan T. Annaev va J. Annaevlar tomonidan Eski Termiz va uning atrofida makedoniyalik Aleksandr yurishigacha odamlar yashaganligini, qishloqlar mavjud bo'lganligini isbotlovchi ko'plab dalillar to'plangan. Bu kabi dalillarga asoslanib, arxeolog olimlar makedoniyalik Aleksandr Tarmita-Termiz

oʻrnida mavjud boʻlgan manzilni kengaytirgan, mustahkamlagan va uni oʻz nomi bilan atagan deb taʼkidlaydilar.

Miloddan avvalgi 323-yilda makedoniyalik Aleksandr vafotidan soʻng uning ulkan imperiyasida boʻlgani kabi, Oʻrta Osiyoda ham siyosiy vaziyat keskinlashadi. Bu bir tomondan diadoxlarning hokimiyat uchun kurashi hamda joylardagi yunon-makedonlarning oʻz yurtlariga qaytish maqsadida koʻtargan gʻalayonlari bilan bogʻliq edi. Boshqa tomondan esa koʻchmanchi chorvador aholining dehqonchilik vohalariga yurishlari kuchaygan.

V. Tarning fikricha, Termizning taqdiri ham shunday kechgan: u miloddan avvalgi 329-yillar atrofida koʻchmanchilar tomonidan vayron etilgan. Biroq salavkiylar podshohi Antiox I shaharni tez orada tiklab, unga Antioxiya deb oʻz nomini beradi. Ravennalik nomaʼlum geografning milodiy VII asrga oid xaritasida ham “Pevtinger jadvallari”da uning nomi Antioxiya-Tarmita shaklida eslatib oʻtiladi.

Ilk oʻrta asrlar davrida, xususan III–IV asr arman manbalarida bu shahar “Drmat”, xitoy manbalarida esa, jumladan 630-yilda Termizda boʻlgan buddaviy kohin-sayyoh Syuan Szan tafsilotlarida “Ta-mi” tarzida bitilgan. Taʼkidlash joizki, bu ikki atamada ham Tarmitaga xos jarangdorlik va oʻxshashlik kuzatiladi.

Arablar ilk bora Termiz hududiga 676-yilda kirib kelganlar. 689-yili Termizni isyonkor Xuroson noibi Abdulloh ibn Xozimning oʻgʻli Muso ibn Abdulloh bosib oladi va qariyb 15 yil davomida unda hukmronlik qiladi. Bu voqealar tafsiloti at-Tabariyning “At-Tarix” asarida bayon etilgan boʻlib, aynan shu VIII asrdan shahar nomi “Tirmiz” shaklida talaffuz etilgan va yozilgan.

Bu fikrni yozma manbalarda “Tirmiz” nomi bilan bir qatorda, bu shaharda VIII asrda tugʻilib voyaga yetgan buyuk siymolar nisbalari ham tasdiqlaydi. IX–X asr Turkiston tasavvuf tariqatining ilk namoyondasi termizlik Muhammad Hakim Termiziy va uning otasi Ali ibn Termiziy ham “Termiziy” nisbasiga ega boʻlganlar. Shu sababli VIII asrdan boshlab shahar nomi “Tirmiz” shaklida keng qoʻllanilgan.

Sh. Pidaev taʼkidlashicha, IX–XI asrlarga oid arab-fors manbalarida shaharning nomi koʻpincha “Tarmid”, “Tarmiz” va “Tirmiz” shaklida uchraydi. XII asr tarixchisi va hadisshunosi Abu Saʼd Abdalkarim as-Samʼoniy “Kitob al-Ansob” asarida shaharni baʼzan “Turmiz” shaklida yozish qabul qilinganini, mahalliy aholi esa uni “Tarmiz” deb talaffuz qilganini qayd etadi.

XIV asrda zarb etilgan tangalarda Termizga “Madinat ur-rijol”, yaʼni “Erlar shahri” degan ibora ham qoʻllanilgan. Termiz bu nomga 1220-yil kuzida moʻgʻullarga qarshi koʻrsatgan qahramonona qarshiligi tufayli sazovor boʻlgan.

XIII asrning 20-yillarida Termiz Chingizxon qoʻshinlari tomonidan vayron etilgach, shahar sharqqa — Chagʻonrud (Surxondaryo)ning oʻng qirgʻogʻiga koʻchgan boʻlsa-da, oʻz nomini saqlab qolgan. Bu haqda 1333-yilda Termizda boʻlgan mashhur sayyoh Ibn Battuta shunday yozadi: “Eski Termiz shahri Jayhun boʻyida barpo etilgan

edi. Chingiz bu shaharni vayron etgandan so‘ng yangi shaharni ikki chaqirim narida qurishgan”.

1404-yilda Amir Temur saroyiga Kastiliya qiroli Genrix III nomidan elchi bo‘lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo kundaligida bu shahar “Tarmit” deb nomlangan. XIV asrda Termizda Chag‘oniyon va Navand bilan birgalikda zarbxona faoliyat yuritgan va bu yerda Amir Temur hamda Temuriylar davlatida muomalada bo‘lgan tangalar zarb etilgan.

XVIII–XIX asrlarda shahar o‘zining oldingi mavqei va ahamiyatini yo‘qota boshlagan. XIX asr oxirida Surxondaryoning Amudaryoga quyilish joyida Pattakesar qishlog‘i rivojlangan. Shu tariqa XIX asrning ikkinchi yarmidan 1928-yilgacha hozirgi Termiz hududi Pattakesar deb yuritilgan.

Manbalarda Pattakesar nomining etimologiyasi haqida ikki xil fikr mavjud. Birinchi fikrga ko‘ra, “patta” — qayiqda o‘tish uchun chipta, “kesar” esa tekshirilgan chiptani yirtish ma’nosini bildiradi. Ikkinchi fikrga ko‘ra esa, bu hududda “patta” deb ataluvchi o‘simlik ko‘p o‘sgan va yerlar shu daraxtlardan tozalanib, ekin maydonlariga aylantirilgan.

1928-yildan boshlab shahar nomi yana Termiz deb yuritila boshlagan. VIII asrdan XIX asrgacha yozma manbalarda Termizga yaqin hududlarda mavjud bo‘lgan quyidagi tarixiy joy nomlari tilga olingan: “Usmon oroli” (“Jazirati Usmon”, hozirgi Orol Payg‘ambar), Maymurg, Ruxshabuz, Sulton-Sodot, Salovat va Jarminkon (hozirgi Jarqo‘rg‘on).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Termiz shahri qadimiy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyoning muhim madaniy va savdo markazlaridan biridir. Shaharning tarixiy toponimikasi uning uzoq asrlar davomida turli xalqlar, madaniyatlar va davlatlar ta’sirida shakllanganini ko‘rsatadi. Termiz nomining kelib chiqishi, mahalla, guzar, ko‘cha va tarixiy joy nomlari hududning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Toponimlar orqali shaharning qadimgi davrlardagi geografik o‘rni, aholining turmush tarzi, hunarmandchiligi va diniy qarashlari haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Bugungi kunda Termizning tarixiy toponimlarini o‘rganish nafaqat ilmiy jihatdan, balki milliy merosni asrash va yosh avlodga tarixiy xotirani yetkazishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tarixiy joy nomlarini saqlash, ularni ilmiy asosda tadqiq etish va targ‘ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B.69.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. «Geografik ob’ektlarning nomlari

to'g'risida».2011 yil 12 oktyabr

3. O'zbekiston Respublikai Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrda —Geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqidal 295-son qarori.

4. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010 – B. 204.

5. Xromov A.L.Ocherki po toponimii i mikrotoponimii Tadjikistana. – Dushanbe: Irfon, 1975. – B. 3-4, 9.

6. Oxunov N., Ahmadaliev Yu. Farg'ona viloyati oykonimlarining nomlanish xususiyatlari. – Farg'ona, 2010. – B. 29.

7. Rajabov O'. Toponimik indikatorlarning funktsional-semantik xususiyatlari: filol. fan. nomzodi... dis. avtoref. – Toshkent, 2009. – B. 24.